O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining
2024-yil 16-dekabrdagi
402-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan
57-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (Malaka oshirish) KURSINING

O‘QUV REJASI

Malaka yo‘nalishi:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Tarbiya fani o‘qituvchilari

(Oliy va 1-toifali o‘qituvchilar)

I. O‘QUV JARAYONI JADVALI

Vaqt	Kunlar																								O‘quv jarayoni			
Hafta	1-hafta						2-hafta						3-hafta						4-hafta						Jami	Nazariy	Amaliy	Yakuniy attestatsiya
Kun	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24				
Soat	6	6	6	6	6		6	6	6	6	6		6	6	6	6	6		6	4					100	24	70	6

II. O‘QUV REJASI

T/r	O‘quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o‘quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)			Soatlarning haftalar bo‘yicha taqsimoti			
							1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
		Soat	%	Jami	Nazariy	Amaliy	30	30	30	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
I	**Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**	**20**	**20,0**	**20**	**8**	**12**	**12**	**8**	**0**	**0**
1.1	Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar	8		8	2	6	8			
1.2	O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi	4		4	2	2		4		
1.3	Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi	4		4	2	2	4			
1.4	Ta’limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv	4		4	2	2		4		
II	**Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish**	**26**	**26,0**	**26**	**8**	**18**	**6**	**10**	**10**	**0**
2.1	Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik	4		4	2	2	4			
2.2	Zamonaviy ta’lim paradigmalari	6		6	2	4	2	4		
2.3	O‘quv jarayonini samarali tashkil etish	6		6	0	6		6		
2.4	Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt	6		6	2	4			6	
2.5	Formativ va summativ baholash tamoyillari	4		4	2	2			4	
III	**Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**	**48**	**48,0**	**48**	**8**	**40**	**12**	**12**	**20**	**10**
3.1	Tarbiya fanini o'qitishning milliy- amaliy asoslari (DTS, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va milliy kontentlar)	6		6	2	4	6			
3.2	Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi	4		4	2	2	2		2	
3.3	Tarbiya darslarida mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining milliy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish	6		6		6	4	2		
3.4	Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va milliy-tarixiy modellardan foydalanish	10		10	2	8		10		
3.5	Tarbiya darslarida o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi	8		8	2	6			8	
3.6	Tarbiya darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholash	6		6		6			6	
3.7.	Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish metodikasi	4		4		4			4	
3.8.	Tanlov moduli	4		4		4				4
IV	**Yakuniy attestatsiya**	6	6,0	6		6				6
	Hammasi	**100**	**100,0**	**100**	**24**	**76**	**30**	**30**	**30**	**10**

Izoh:

1. O‘quv rejasi asosida kurs mashg'ulotlarini tashkil qilishda:
   - o‘quv rejadagi modullarning nomlanishi va ularga ajratilgan soatlar miqdorini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi;
   - o‘quv yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda o‘quv modullariga ajratilgan soatlarning haftalar bo‘yicha taqsimotini mustaqil belgilash mumkin.
2. Tinglovchilar o‘quv rejaning "Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar" moduli bo‘yicha ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo'llashga doir topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini (loyiha ishi, mikrodars va boshqa) tayyorlaydilar.
3. Yakuniy attestatsiya kurs oxirida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholashdan iborat yakuniy nazorat sinovi va malaka ishi (loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti) himoyasi tarzida o'tkaziladi.
4. Malaka ishi tinglovchilar tomonidan mustaqil tayyorlanadi va uning himoyasini o‘tkazish ajratilgan vaqtlarda amalga oshiriladi.
5. Ushbu o‘quv reja malaka oshiruvchi kadrlarning quyidagi yo‘nalishlari uchun amal qiladi:
   1) Tarbiya fani o‘qituvchilari (Oliy va 1-toifa o‘qituvchilar) uchun

O‘quv reja A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2024-yil 16-dekabrdagi 8-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

Pedagogik kadrlarni tayyorlash
va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i — M.Yuldashev

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat
milliy instituti rektori — A.Ismailov

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat
milliy instituti prorektori — X.Burhonxo‘jaeva

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (malaka oshirish) KURSINING

O‘QUV DASTURI

(oliy va 1-toifali o‘qituvchilari uchun)

Toshkent – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Tarbiya fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o‘quv dasturi

Tuzuvchilar:

X.I.Ibraimov, R.G.Safarova, M.X.Toshbekova, N.X.Mannanova

Taqrizchilar:

X.Botirov	-	A.Avloniy nomidagi PMMI dotsenti p.f.f.d (PhD).
X.M.Tojiboyeva	-	TPMI direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari p.f.d., prof.

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2024-yil 16-dekabrdagi 8-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktab ta’limi sifatini yaxshilashda fan o‘qituvchilarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy yondashuvi, sinfni boshqarish, ota-onalar va o‘quvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, inklyuziv ta’limni tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari fan o‘qituvchilarini malaka oshirish kurslarida o‘qitish va ularga malaka sertifikatini berish kursining o‘quv dasturi,

ular egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalar va umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari kasb standarti bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

1.1. Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1.2. O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi

1.3. Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi

1.4. Ta’limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv

II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

2.1. Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik

2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari

2.3. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish

2.4. Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari

III. Tarbiya fanini o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar

3.1. Tarbiya fanini o‘qitishning milliy-amaliy asoslari (DTS, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va milliy kontentlar)

3.2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi

3.3. Tarbiya darslarida mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining milliy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish

3.4. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va milliy-tarixiy modellardan foydalanish

3.5. Tarbiya darslarida o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi

3.6. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash

3.7. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish metodikasi

3.8. Tanlov moduli

IV. Yakuniy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi – o‘quv fani bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir mahorati va kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish;

ularning kasbiy rivojlanish tizimi uzluksizligini ta’minlash va o‘qitishning innovatsion g‘oyalari bilan tanishtirish;

zamonaviy yondashuvlar asosida ularning kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajriba asosida yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;

jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini o‘rgatish;

kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intelerktni qo‘llash malakalarini rivojlantirish;

ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti asosida, tegishli yo‘nalish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktab pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog va mutaxassis xodimlari malaka oshirish o‘quv kursining hajmi **4 ta blok, 17 ta modul** va yakuniy sinovdan iborat bo‘lib, jami **100 soatni** tashkil etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Tarbiya fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (*malaka oshirish*) kursining o‘quv dasturi modullarining mazmuni

T/r	O‘quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o‘quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Soat	**%**	Jami	Nazariy	Amaliy
1	2	3	4	5	6	7
I	Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	20	20	20	8	12
II	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	26	26	26	8	18
III	Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar	48	48	48	8	40
IV	Yakuniy attestatsiya	6	6,0			6
	Jami	**100**	**100,0**	**94**	**24**	**76**

Izoh: ***“Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish”*** *bloki hamda* ***“Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish”*** *bloki tarkibiga kiruvchi o‘quv modullarining dasturi alohida invariant dastur sifatida tasdiqlangan.*

III. FANNI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

3.1. “Tarbiya fanini o‘qitishning milliy- amaliy asoslari (DTS, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va milliy kontentlar)” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	**O‘quv moduli mavzularining nomlari**	**Auditoriya mashg‘ulotlari** (soatlarda)		
		Jami	**Nazariy**	**Amaliy**
1.	Tarbiya fanidan Davlat ta’lim standartlarining mazmuni, maqsad va vazifalari	**2**	2	
2.	Tarbiya fani bo‘yicha yaratilgan yangi avlod darsliklarining mazmuni (oldingi darsliklar bilan qiyosiy o‘rganish asosida)	**2**		2
3.	Tarbiya fanning o‘quvchi yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni	**2**		2
	Jami	**6**	**2**	**4**

3.1. “Tarbiya fanini o‘qitishning milliy-amaliy asoslari (DTS, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va milliy kontentlar)”modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiya fanidan Davlat ta’lim standartlarining mazmuni, maqsad va vazifalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Davlat ta’lim standartlarining tarkibi. O‘quv dasturlarining mazmuni. O‘quvchilarda shakllantiriladigan asosiy ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar. O‘quvchilarni tarbiyalash metodikalari va tarbiyaviy jarayonlarga qo‘yiladigan talablar. Xalqaro huquqiy normalar.

2-mavzu. Tarbiya fani bo‘yicha yaratilgan yangi avlod darsliklarining mazmuni (oldingi darsliklar bilan qiyosiy o‘rganish asosida)

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya faniga oid tushunchalar. Ularni o‘quvchilarga o‘rgatish metodlarini qo‘llash kompetensiyasi. Tarbiya faniga oid manbalar va o‘qituvchining ular bilan ishlash kompetensiyasi.

3-mavzu. Tarbiya fanining o‘quvchi yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni

(2 soat nazariy mashg’ulot)

Tarbiya fanini o‘qitishga oid pedagogik nazariyalar, tarbiyaga oid yondashuvlar va ularni amaliyotga tatbiq etishda qo‘llaniladigan usul va metodlar. O‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda Tarbiya faninn o‘qitish jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. Tarbiya darslarida o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik, psixologik asoslari va yosh davrlari kesimida ularni tarbiyalash metodikasi. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning gender xususiyatlarining hisobga olgan holda ularning shaxsiy sifatlarini shakllantirish metodlari.

3.2. “Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Darslarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish usullari	2		2
2.	O‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirishning pedagogik asoslari	2	2	
	Jami	**4**	**2**	**2**

3.2. “Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Darslarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish usullari

(2 soat amaliy mashg‘uloti)

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan usullar va texnologiyalar.

Darslardagi turli mavzularga mos tarbiyaviy metodlarni qo‘llashda kreativ yondashuvlar. O‘quvchilarda sog‘lom turmushni shakllantirish.

2-mavzu. O‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirishning pedagogik asoslari

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

O‘quvchilarni ma’naviy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish, jamoaviy munosabatlarni shakllantirish. O‘quvchilardagi o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari.

3.3. “Tarbiya fanini o‘qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish” metodikasi modulining o‘quv mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlarini o‘rganish	**2**		2
2.	Tarbiya darslarida mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarning milliy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish	**2**		2
3.	Jadid ma’rifatparvarlari tarbiya turlari va tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llaniladigan metodlar va texnologiyalar haqida	**2**		2
	Jami	**6**		**6**

3.3. “Tarbiya fanini o‘qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlarini o‘rganish

(2 soat amaliy mashg‘uloti)

Tarbiyaviy mazmundagi maqol va hikmatlardan pedagogik amaliyotda foydalanish maqsadida role play yoki guruhli faoliyatni tashkil qilish, jadid ma’rifatparvarlarning hayotiy faoliyati, qiyinchiliklarni bartaraf etish tajribasi bilan o‘quvchilarni tanishtirish maqsadida motivatsiya vaziyatlarini yaratish, ularning g‘oyalarini video roliklar, taqdimotlar yoki boshqa kreativ vositalar orqali namoyish etish.

2-mavzu. Tarbiya darslarida mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarning milliy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarning asarlarini tahlil qilib, ularning tarbiyaga oid qarashlaridan darslarda foydalanish, fikrlarini o‘quvchilar bilan muhokama qilib, zamonaviy ijtimoiy muammolarga qanday yechim taklif qilishlarini aniqlash, tarbiyaga maqollar va hikmatlardan pedagogik amaliyotda foydalanish maqsadida role play yoki guruhli faoliyatni tashkil qilish.

3-mavzu. Jadid ma’rifatparvarlari tarbiya turlari va tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llaniladigan metodlar va texnologiyalar haqida

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ta’limda tarbiya texnologiyalari, o‘z davrining talablariga javob beradigan yangi pedagogik yondashuvlar, diniy va axloqiy bilimlarni o‘rgatish usullari, ilmiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish vositalari, jadidlarning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari, jadidlarning yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi yondashuvlari, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanishlarga va jamiyatda faol bo‘lishga tayyorlashdagi muammolar.

3.4. “Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va milliy-tarixiy modellardan foydalanish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Tarbiya darslarida tadqiqotga asoslangan ta’lim metodini qo‘llash	2	2	
2.	Tarbiya fanini o‘yin va simulyatsiya metodlari asosida tashkil etish	2		2
3.	Tarbiya fanida keyslar tuzish va qo‘llash algoritmi	2		2
4.	Tarbiya fanida 5E modelini qo‘llash usullari	2		2
5.	Tarbiya darslarida Xalq og’zaki ijodiyoti namunalaridan foydalanish usullari	2		2
	Jami	**10**	**2**	**8**

3.4. “Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va milliy-tarixiy modellardan foydalanish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiya darslarida tadqiqotga asoslangan ta’lim metodini qo‘llash

(2 soat nazariy mashg‘uloti)

Tarbiya darslarida o‘quvchilar oldiga aniq muammolar qo‘yish orqali ularning bilish faoliyatini rivojlantirish texnalogiyalari, o‘quvchilar oldiga mavzu bilan bog‘liq holda amaliy topshiriqlar qo‘yishga oid talablar, tarbiya darslarida o‘quvchilarning guruhli faoliyati hamda hamkorlikda ishlashini tashkil etish, tarbiya darslarida tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatni amalga oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositalarini qo‘llash, ilmiy dalillarga tayangan holda qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish, tadqiqot jarayonida yangi g‘oyalarni ilgari surish usullari va metodlarni qo‘llash, ixtirochilik va mavjud bilimlarni boyitishga oid yondashuvlarni qo‘llash.

2-mavzu. Tarbiya fanini o‘yin va simulyatsiya metodlari asosida tashkil etish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvilarni faollashtirishning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy, hissiy, kognitiv va amaliy ko‘nikmalar, o‘yin va simulyatsiya metodlari, mustaqil bilim olishning pedagogik ahamiyati, vujudga kelgan muammolarga yechim topish usullari, o‘yin metodi, o‘quvchilarga emotsional ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchilar orasida hamkorlik va raqobatlashish muhitini yaratish, o‘quvchilarni o‘zini o‘zi baholashga o‘rgatish, rolli o‘ynlardan foydalanish (Roleplaying) ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatish usullari, kompyuter simulyatsiyalari orqali “do‘stlik” yoki “raqobatlashish” kabi tushunchalarni o‘rganish texnologiyalri.

3-mavzu. Tarbiya fanida keyslar tuzish va qo‘llash algoritmi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy rivojlanishlarini ta’minlashning samarali metodlari, Keyslar (yoki mavjud vaziyatlarning tahlili usulidan foydalanish), Tarbiya darslarida o‘quvchilarni real hayotiy muammolarga yechim topishga o‘rgatishning pedagogik ahamiyati, tarbiya darslarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, qarorlar qabul qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiradigan metodlardan foydalanish, dars mavzusi bilan bog‘liq holda maqsadni aniqlash mezonlari, real hayotiy vaziyatlarda tanlovni amalga oshirish vositalari, mavjud vaziyatlarni tavsiflash usullari, o‘quvchilarda muammolarni aniqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

4-mavzu. Tarbiya fanida 5E modelini qo‘llash usullari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarini tashkil etishga oid pedagogik yondashuvlar, Tarbiya darslarida mavjud modellar va ilmiy-eksperimental yondashuvga asoslangan texnologiyalardan foydalanish texnikasi, tarbiyaviy jarayonlarda tajriba yordamida o‘quvchilarning yangi bilimlari va shaxsiy sifatlarini kashf etish, bu jarayonda Engage (Jalb etish, qiziqtirish), Explore (Kashf etish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Kengaytirish), Evaluate (Baholash) usullaridan foydalanish.

5-mavzu. Tarbiya darslarida Xalq og’zaki ijodiyoti namunalaridan foydalanish usullari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida etnopedagogik qadriyatlar, o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analari, e’tiqodlari va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan didaktik vositalardan foydalanish usullari, xalq o‘zaki ijodi namynalaridan Tarbiya darslarida tizimli foydalanish, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning madaniy va milliy ongini boyitish shakllari, xalq o‘zaki ijodi namunalari vositasida o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish texnologiysi, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning fikrlash layoqati, ijtimoiy hamkorlikka kirishish ko‘nikmalari va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish metodlari.

3.5. “Tarbiya darslarida o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi” modulining o‘quv mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning konvergen va divergent fikrlash faoliyatini rivojlantirish usullari	2	2	2
2.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning jamoada ishlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari	2		2
3.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning induktiv va deduktiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari	2		2
4.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarda shakllantirilgan 4K kompetensiyalarini baholash rubrikalari	2		2
	Jami	**8**	**2**	**6**

3.5. “Tarbiya darslarida o‘quvchilarda 4k kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning konvergent va divergent fikrlash faoliyatini rivojlantirish usullari

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilarning mustaqil, kreativ va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usul va metodlari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash asosida turli g‘oyalar va yondashuvlarni bayon qilishlariga yo‘naltirilgan vaziyatlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning mantiqiy firklash va dalillarni tahlil qilish asosida tezkor qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari, Tarbiya darslarining o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi texnologiyalar, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish vositalari va usullari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning madaniy dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga oid yondashuvlar va usullar.

2-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning jamoada ishlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari

(2 soat amaliy mashg‘ul

Tarbiya darslarida jamoaviy ish, umumiy maqsadga erishish uchun turli iste’dodlar, qarashlar va jamoaviy sa’y-harakatlarni birlashtiradigan jamoaviy yondashuv metodlarini qo‘llash, Tarbiya darslarida o‘quvchilarni jamoaviy faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarga o‘rgatish metodlari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarni samarali muloqotga kirishish, turli rollarni muvaffaqiyatli bajarish va liderlik sifatlarini shakllantirish, resurslarni o‘zaro almashish va bir-birlarini qo‘llab quvvatlashga o‘rgatish metodlari, Tarbiya darslarida o‘quvchilar orasida jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalardan foydalanish.

3-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning induktiv va deduktiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilarni yangi bilimlarni kashf etish usullari bilan qurollantirish, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning fikrlarini boyitish usullari, Tarbiya darslarida muhokamalarda faol ishtirok etish, ijtimoiy tajribani egallash hamda natijalarga asoslangan ta’lim modelidan foydalanish metodlari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlarlashga undash imkoniyatining pedagogik ahamiyati, Tarbiya darslarida aniq bilimlar, formulalar va qoidalar asosida o‘qitish texnologiyalari, Tarbiya darslarida o‘quv mavzusini tushunishga ko‘maklashadigan

texnologiyalar, Tarbiya darslarida mavjud yo‘riqnomalar va ko‘rsatmalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish talablari.

4-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarda shakllantirilgan 4K kompetensiyalarini baholash rubrikalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish vositalari va usullari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodlari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashlari va muvaffaqiyatlarini aniqlash vositalari va usullari, o‘lchovli baholash mezonlarining tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishdagi ahamiyati, Tarbiya darslarida o‘quv materiallarni o‘quvchilarga samarali o‘rgatish usullari, Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash metodikasi.

3.6. “Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash”modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash usullari	2		2
2.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini aniqlash va baholashda Blum taksonomiyasidan foydalanish metodikasi	2		2
3.	Tarbiya darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyati natijalarini baholash va aniqlangan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish	2		2
	Jami	**6**		**6**

3.6. “Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash usullari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholashda foydalaniladigan usullar va metodlar, ularning afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganish, Tarbiya darslarida o‘quvchilar faoliyatini rejalashtirish va kuzatishning pedagogik ahamiyati. Tarbiya darslariga o‘quvchilarning shaxslararo munosabatga kirishish va jamoaviy faoliyati natijalarini baholash

2-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini aniqlash va baholashda Blum taksonomiyasidan foydalanish metodikasi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan o‘qitish, o‘rganish va baholash bo‘yicha Benjamin Blum taksonomiyasi – bilish jarayonining 6 bosqichi: tanib olish, eslab qolish; izohlash, tushuntirish; amalga oshirish; tahlil qilish; baholash; yaratish.

3-mavzu. Tarbiya darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyati natijalarini baholash va aniqlangan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya darslarida o‘quvchilar bilimini baholash mezonlari, Tarbiya darslari samaradorligini ta’minlash metodlari, o‘quv jarayoni natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni prognozlash.

3.7. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish metodikasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Tarbiya fanida sinfdan va maktabdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish, madaniyat maskanlariga sayohatlarni tashkil etish	2		2
2.	Tarbiya fanida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilar qiziqishlarini aniqlash, qobiliyatlarini rivojlantirish va liderlik sifatlarini shakllantirish	2		2
	Jami	**4**		**4**

3.7. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish metodikasi” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiya fanida sinfdan va maktabdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish, madaniyat maskanlariga sayohatlarni tashkil etish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya fanida madaniyat maskanlariga sayohatlarni tashkil etish orqali ta’lim oluvchilarni milliy-tarixiy madaniyat bilan tanishtirish, ularda global fikrlashni shakllantirish. Yosh avlodda ijtimoiy – madaniy ko‘nikmalarni

rivojlantirish, milliy o‘zligini anglatish hamda kuzatish. O‘quvchilarda vizual ko‘rish va real tajriba orqali bilim olish imkoniyatini yaratadi tajriba orqali milliy iftixorni uyg‘otish.

2-mavzu. Tarbiya fanida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish orqali liderlik sifatlarini shakllantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda guruhiy loyihalar, rol o‘ynash o‘yinlari, seminarlar va treninlar tashkil etish, tadbirlarda ishtirokini ta’minlash, fikr almashish va muhokama qilishga yo‘naltirish, ijtimoiy mas'uliyat loyihalarini ishlab chiqishga da’vat etish, maqsadlar qo‘yish va natijalarni baholash.

O‘quvchilarni qiziqtiradigan, ularning qobiliyatlarini ochib beradigan turli xil faoliyatlarni (sport musobaqalari, ilmiy konferentsiyalar, ijodiy loyihalar) tashkil etish, sinfdan tashqari tadbirlarni fanlararo bog‘lanishni kuchaytirish orqali amalga oshirish.

3.8. Tanlov modulining o‘quv dasturi

3.8.1. “Tarbiya fanida o‘quvchilarda hissiy intellektni (EI) rivojlantirish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Hissiy intellektning asoslari. Tarbiya fanini o‘qitishda hissiyotlarni boshqarish	2		2
2.	Tarbiya fanini o‘qitishda ta’lim oluvchilarda hissiy intellekt yordamida qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish	2		2
	Jami	**4**		**4**

3.8.1. “Tarbiya fanida o‘quvchilarda hissiy intellektni (EI) rivojlantirish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Hissiy intellektning asoslari. Tarbiya fanini o‘qitishda hissiyotlarni boshqarish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya fanida ta’lim oluvchilarning o‘z hissiyotlarini aniqlash va ularga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganish. Empatiyani rivojlantirish. Hissiy qayta aloqa (o‘z hissiyotlarini boshqalar bilan qanday baham ko‘rish va ijobiy muloqotlarni rivojlantirish) yo‘llari.

2-mavzu. Tarbiya fanini o‘qitishda ta’lim oluvchilarda hissiy intellekt yordamida qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya fanini o‘qitishda ta’lim oluvchilarda hissiy intellekt yordamida oqilona va hissiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish. O‘z hissiyotlarini qayd etish va baholash orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini kengaytirish. Hissiy ta’sir ko‘rsatish va qiyinchiliklarni engish

3.8.2. “Tarbiya fanini o‘qitishda fanlararo aloqadorlik” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Integratsiya: tarbiya fanini o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni ustunlashtirishning samarali yo‘li	2		2
2.	Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi	2		2
	Jami	**4**		**4**

3.8.2. “Tarbiya fanini o‘qitishda fanlararo aloqadorlik” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Integratsiya: tarbiya fanini o‘qitishda fanlararo aloqadorlikni ustunlashtirishning samarali yo‘li

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Integratsiya tizimining mohiyati. Ta’lim oluvchilarda integratsiya tizimi asosida ma’lumot olish, savollarga javob topish, o‘zlashtirilgan bilimlarini yig‘ish va bog‘lanishlar qilishni shakllantirish. Integratsiya natijalarida hamkorlikda ishlash, ijtimoiy mehnatda ishtirok etish, yangi ma’lumotlar ko‘paytirish orqali tarbiya fanining o‘qitish sifatini oshirish.

2-mavzu. Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Tarbiya fanining psixologiya, ma’naviyat, falsafa, pedagogika, dinshunoslik va boshqa fanlarga ko‘ra o‘rganish metodlarini va o‘qitish jarayonini shakllantirish. Tarbiya darslarining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va ish bilish ko‘nikmalarida namoyon etish.

Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi ta’lim oluvchilar uchun ta’lim jarayoniga yangicha mazmun qo‘shish, ularning o‘zlashtirilgan bilimlari to‘g‘ri va yaxshi tushunish. O‘quvchilarning o‘z kasblari uchun o‘rganishni yaxshilash, o‘zaro hamkorlikda rivojlanish va ijtimoiy sohadagi ishlarida qo‘llab-quvvatlash.

IV. Yakuniy attestatsiya

(6 soat amaliy mashg‘ulot)

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining kurs oxiridagi **yakuniy attestatsiyasi** malaka ishining himoyasi (dars ishlanmasi va mikrodars) va o‘quv rejaga kiritilgan o‘quv modullari bo‘yicha chiqish test sinovlari yoki boshqa nazorat turlari - yozma ishlar, ijodiy, mustaqil ishlar orqali amalga oshirilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan “Malaka oshirish kurslarining yakuniy attestatsiyasini tashkil etish tartibi”da belgilab qo‘yiladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-3088008.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-4312785.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5841063.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6008663.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5239538.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-5828765.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-23 1-son qarori, T.: 2024.

Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Fayziyeva U., Jumayev N. Umumiy psixologiya. Buxoro, 2021. – 219 bet.
2. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
3. Gruenert S., Whitaker T. School Culture Recharged: Strategies to Energize Your Staff and Culture. ASCD. February 16, 2017. 200 pages. https://www.aitsl.edu.au/migrate-to-australia/apply-for-a-skills-assessment
4. Human resources in education: development and utilization. Chinwe Edith Okafor. International Journal of Novel Research in Humanity and Social Sciences. 2018. pp 238-242.

5. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. // Toshkent. – “Nihol” nashriyoti, 2013.
6. Ixtiyorova O‘. “Umumta’lim maktablarida pedagogik kengash faoliyatini tashkil etish”. Science and innovation/ Xalqaro konferensiya (To‘plam). -T., 2024, 718-723 betlar.
7. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2022. – 252 bet
8. Satish Prakash Chand, Karishma Kavita Pilley “Formativ va summativ baholash o‘rtasidagi asosiy farqlarni tushunish”. – 2024.
9. Scheerens J., Glas C., Sally M. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.
10. Schleicher A. PISA 2022: Insights and Interpretations. OECD 2023. 68 p.
11. Sharipov Sh., Zokirov I., Tohirov O‘. va b. Umumiy o‘rta ta’limning kasbga yo‘naltirilgan mazmunini klaster texnologiyalari. Metodik tavsiyanoma. – T.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2012.
12. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta’limi pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
13. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma. TDPU. – Toshkent. 2017. 160 bet
14. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / so‘z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir D.Norboeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboeva. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 bet.
15. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent: “Sano-standart” MChJ, 2010. – 88 b.
16. Xidoyatova D.A. Samarali interaktiv metodlar 1.0 / - Toshkent: “VNESHINVESTPROM”, 2024. – 152 b.

Elektron ta’lim resurslari

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
9. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
10. yaklass.ru – maktab o‘quvchilari uchun raqamli ta’limiy resurs, Rossiya.
11. intuit.ru – milliy ochiq universitet, Rossiya.